

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 9

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
имени Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

1931
TDSU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

2010
TDTU
TOSHKENT DAVLAT TEKNIKA UNIVERSITETI

1955
TAKTU
TOSHKENT DAVLAT VOKZAL ARKANSIZ UNIVERSITETI

1955
TDTU
TOSHKENT DAVLAT TEKNIKA UNIVERSITETI

TDF
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TAT
TOSHKENT
AKRITURGA-QURILISH UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA INSTITUTI
1991

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA INSTITUTI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustii majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatalish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbas Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbanova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakarlarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсупов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiysi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
"Intellektual multk", "Intellektual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtafigagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar	100
Rajabov Alibek Xushnudbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozoridagi rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili.....	131
Ismoilov I.B., Qayumov J.A., Ismoilov F.B., Qo'idoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi.....	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики.....	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili	173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo'llari.....	180
Tojiyeva Muhayyo Valiyevna	
Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili	188
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari	201
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevna	
O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o'rta muddatli soliq-budget siyosatining ahamiyati.....	207
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari va ularni raqamli texnologiyalar orqali bartaraf etish yo'llari.....	211
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlari tahlili	216
Xatamov Nurbek Ochiliyevich	
O'zbekiston turizm sohasida innovatsion faoliyotni oshirishning shakllari	222
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
Turizm va mehmonxona industriyasida xizmatlar sifatini oshirishda yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida innovatsiyalar va tadbirkorlik amaliyotining o'rganilishi	227
Kamolova Mohinur Iskandarovna	
Davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati.....	239
Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li	



Big data и искусственный интеллект как драйверы цифровой экономики Бозорова Ирина Жуманазаровна	242
Mahalliy lashtirish asosida mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili va rivojlantirish istiqbollari (Namangan viloyati misolida) Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	247
Temir yo'l transportida yo'llarni ta'mirlash korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	254
Aktualnye voprosy finansirovaniya investitsionnykh proektov Шомуродов Равшан Турсункулович. Раширова Дилфуза Ганиевна	259
Milliy darajada iqtisodiy xavfsizlikning ekologik omillari Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	266
Zamonaviy texnologiyalar va raqamli yondashuvlarning individuallashtirilgan xizmatlarda tutgan o'rni Raxmatov Aziz Tolipovich	276
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	280
Mahalliy moda brendlarini iste'molchilar kiyinish imijiga ta'sirini ekonometrik baholash Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	286
Moliyaviy innovatsiyalarni banklarga joriy etishning afzallikkleri Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi	290
Kichik biznesni innovatsion rivojlantirish strategiyasi Muxitdinov Shuxrat Ziyaviddinovich	295
Raqamli iqtisodiy sharoitida parrandachilikni rivojlantirishni modellashtirish usullari Bobomuratov Imomkul Islamovich	299
Mehnat resurslaridan foidalanishning xususiyatlari va tashkil etish mezonlari Kobilova Zebo Bobokulovna	306
Zelёnoye budzhetirovaniye kak instrument povysheniya effektivnosti upravleniya gosudarstvennymi finansami Наимов Шохрух Шарофиддинович	311
Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitiga oid ilmiy nazariy qarashlar Donaboyev Jahongir Husan o'g'li	318



SOLIQ MA'MURCHILIGI VA RAQOBAT MUHITIGA OID ILMUY NAZARIY QARASHLAR

Donaboyev Jahongir Husan o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

<https://orcid.org/0009-0009-6192-0787>

jaxongir.donabaev@soliq.uz

Annotatsiya: Maqlolada soliq ma'murchiligi va raqobat muhitiga oid ilmiy-nazariy qarashlar yoritilgan. Soliq ma'murchiligi iqtisodiyotni tartibga solish va barqrarlashtirish vositasi sifatida ko'rib chiqilib, uning raqobat muhitiga ta'siri nazariy jihatdan asoslangan. Raqobat muhiti esa tadbirkorlik subyektlari uchun teng sharoit yaratish, soliqlardan bo'yin tovplashni kamaytirish hamda "soya iqtisodiyoti"ning oldini olishda muhim omil sifatida talqin qilingan. Shuningdek, zamonaviy ilmiy qarashlar asosida soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirish va uning orqali raqobatbardosh iqtisodiy muhitni shakllantirish yo'llari nazariy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: soliq ma'murchiligi, raqobat muhiti, soya iqtisodiyoti, samaradorlik, nazariy asoslar.

Abstract: The article covers scientific and theoretical views on tax administration and the competitive environment. Tax administration is considered as a means of regulating and stabilizing the economy, and its impact on the competitive environment is theoretically based. The competitive environment is interpreted as an important factor in creating equal conditions for business entities, reducing tax evasion, and preventing the "shadow economy". Also, based on modern scientific views, ways to increase the efficiency of tax administration and thereby form a competitive economic environment are theoretically analyzed.

Keywords: tax administration, competitive environment, shadow economy, efficiency, theoretical foundations.

Аннотация: В статье рассматриваются научно-теоретические взгляды на налоговое администрирование и конкурентную среду. Налоговое администрирование рассматривается как средство регулирования и стабилизации экономики, а также теоретически обосновывается его влияние на конкурентную среду. Конкурентная среда трактуется как важный фактор создания равных условий для субъектов предпринимательства, снижения уклонения от уплаты налогов и предотвращения «теневой экономики». Также, на основе современных научных взглядов, теоретически анализируются пути повышения эффективности налогового администрирования и формирования тем самым конкурентной экономической среды.

Ключевые слова: налоговое администрирование, конкурентная среда, теневая экономика, эффективность, теоретические основы.

KIRISH

Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitiga oid ilmiy-nazariy qarashlar zamonaviy iqtisodiyotda alohida o'rindan. Soliq ma'murchiligi davlatning fiskal siyosatini samarali amalga oshirish, budget barqrarligini ta'minlash hamda soliq to'lovchilar faoliyatini tartibga solish jarayonlarini ifodalasa, raqobat muhiti esa xo'jalik subyektlari o'rtaida teng sharoitlar va iqtisodiy erkinlikni kafolatlaydigan tizim sifatida qaraladi. Ilmiy adabiyotlarda soliq ma'murchiligi samaradorligi bilan raqobat muhiti sifatining o'zaro bog'liqligi alohida ta'kidlanadi. Adolatlari va shaffof soliq tizimi tadbirkorlik subyektlarini qonuniy faoliyat yuritishga undab, ularning raqobatbardoshligini oshiradi, soliqdan bo'yin tovplash hamda "soya iqtisodiyoti"ni cheklashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, soliq ma'murchiligining byurokratik to'siqlar bilan murakkablashuvi yoki adolatsiz qo'llanilishi bozorda teng raqobat tamoyillarini buzishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Soliq ma'murchiligini takomillashtirish hisobiga raqobat muhitini rivojlantirish yo'llari va strategik rivojlanishini yo'naltirishda asosiy vosita sifatida qaraladi.

Kurnosova Ye.A raqobat muhiti-bu bozor subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirishning institutsional shartlari. Ushbu ta'rifdan kelib chiqadiki, „raqobat muhiti“ tushunchasi rivojlangan infratuzilma, moliya, pul-kredit siyosati va tegishli institutlarning ozmi-ko'pmi birlashtirilgan vositalariga ega bo'lgan davlat yoki mintaqaviy tashkilot bilan bog'liq [1].



Lenginovich S.G “raqobat muhiti - bu boshqaruvning qonuniy belgilangan me’yorlari va qoidalariiga asoslangan, belgilangan natijalarni amalga oshirish natijalarini tezkor monitoring qilish ta’siri ostida o’zgarib turadigan raqobatbardosh tartib maqsadlar [2].

M.Porter konsepsiyasiga ko’ra, mamlakatning raqobat jihatdan ustunliklari “milliy rombi”ning to’rtinchı elementi ichki bozorda keskin raqobatning mavjudligi firmalarni o’z faoliyatini takomillashtirishga, ishlab chiqarishni kengaytirish uchun tashqi bozorlarga chiqishga undashi asoslangan. Kuchli ichki raqobat muhitida toblangan firmalar tashqi bozorlarda ham qiyinchiliklarsiz muvaffaqiyatga erishishi nazariy jihatdan isbotlangan. M.Porter kompaniyaning sohadagi mavqeyi raqobatbardosh ustunlik bilan belgilanadi, deb hisoblagan [3].

Soliq ma’murchiligi vakolatli organlarning soliq nazorati funksiyalarini amalga oshirish va soliqqa oid huquqbuzarlik uchun aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish bilan bog’liq faoliyati hisoblanadi [4].

N.Ashurova o’z izlanishlarida “Barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish”ni o’rgangan. Olimning doktorlik dissertatsiyasi barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida raqobatbardosh yuqori sifatli mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni ko'paytirish va turlarini kengaytirishni rag'batlantirish, ichki iste'mol bozorini to'yintirish, tayyor nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqaruvchi yangi mahalliy korxonalarni tashkil etish hamda mavjudlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, buning asosida bandlikni ta'minlash, aholi daromadlari va farovonlik darajasini oshirish maqsadida soliq imtiyozlarining amal qilish muddatlarini uzaytirish yuzasidan berilgan takliflar soliqqa tortish amaliyotiga tatbiq etilgan [5].

R.N.Kalakov ham “soliq imtiyozlari samaradorligini baholashning yagona metodikasi” mavjud emasligi kabi salbiy holatlarni hamda imtiyozlarning samaradorligini baholash umum davlat ahamiyatidagi jiddiy masala ekanligini qayd etgan [6].

Soliq ma’murchiligini takomillashtirish va uning raqobat muhitiga ta’siri masalasi ko’plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o’rganilgan. Klassik iqtisodchilar – A. Smith, D. Ricardo va J. Mill asarlarida soliq tizimining adolat, soddalik va samaradorlik tamoyillari asosida tashkil etilishi iqtisodiyotda sog’lom raqobat muhitini shakllantirishda muhim omil sifatida ta’kidlangan. [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda iqtisodiyot sohasida tadbirkorlik munosabatlarining tobora rivojlanib borayotganligi, mahsulot bozorida tovar, ish va xizmat turlarining sifat jihatdan yaxshilanishiga, narx-navoning iste'molchi ehtiyojidan kelib chiqib belgilanishiga olib kelmoqda. Bu o’z navbatida bozorda erkin raqobat muhitining qanchalik darajada ijobji rivojlanayotganligi va tadbirkorlik subyektlarining erkin faoliyat olib borish mexanizmining samaradorligi natijasi sifatida qarash mumkin. Klassik siyosiy iqtisod vakillari sanalgan A.Smit va D.Rikardonning xizmatlari kattadir. Keyingi davrlarda F.Perru, A.Marshall, Dj.Keyns, V.Leontyev, Y.Shumpeter, P.Sraffa, M.Porter, F.Kotler va boshqalarning mehnatlari tufayli raqobat nazariyasi yanada rivoj topdi.

Raqobat mohiyatiga to’xtalar ekanmiz, uni asosan uch xil yondashuvga bo’lish mumkin. F.Perru raqobatni doimiy tahdidli harakat sifatida tushuntiradi. Inson o’z manfaatini ko’zlab qimmatroq sotib, arzon xarid qilishga intiladi. Shuning uchun raqobat bilan doimiy to’qnashishga to’g’ri keladi. Strukturali yondashuvda asosiy e’tibor raqobatchilarning o’zaro kurashidan bozor strukturasi, unda hukmronlik qiluvchi shart-sharoitlar tahliliga ko’chib o’tadi. Masalan, K.R. Makkonnell va S.L. Bryuning¹ asarlarida aytib o’tilishicha, raqobat bozorda ko’p sonli mustaqil xaridor va sotuvchilar mavjudligi, xaridor va sotuvchilar uchun bozorga erkin kirish va undan chiqish imkoniyatidir.

Ilmiy jihatdan milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini shakllantirish va rivojlantirishning M.Porter konsepsiyasiga ko’ra, mamlakatning raqobat jihatdan ustunliklari “milliy rombi”ning to’rtinchı elementi ichki bozorda keskin raqobatning mavjudligi firmalarni o’z faoliyatini takomillashtirishga, ishlab chiqarishni kengaytirish uchun tashqi bozorlarga chiqishga undashi asoslangan. Kuchli ichki raqobat muhitida toblangan firmalar tashqi bozorlarda ham qiyinchiliklarsiz muvaffaqiyatga erishishi nazariy jihatdan isbotlangan. M.Porter kompaniyaning sohadagi mavqeyi raqobatbardosh ustunlik bilan belgilanadi, deb hisoblagan². Oxir oqibat, firma kuchli raqobatbardosh ustunlikka ega bo’lsa, yetakchilik qiladi.

Raqobat ustunligi ikki asosiy turga bo’linadi: past xarajatlar va tovarlarni farqlash. Raqobat muhiti tahlilining asosiy ta’minoti firmaning bozordagi raqobat ustunligini amalga oshirish qobiliyatidir, bu nafaqat bevosita

¹ Макконнелл, К.Р. Экономикс: Принципы, проблемы и политика : в 2-х т.: Пер. с англ. / Брю, С.Л. — М. : Республика. Т. 1. — 1992. — 399[1] с.

² M.Porter “Mamlakatning raqobat jihatdan ustunliklari “milliy rombi”ning yana 3 ta elementi keltirilgan konsepsiysi”



raqobatga, balki boshqa raqobat kuchlariga ham bog'liq. Ya'ni, potensial raqobatchilardan, o'rnnini bosuvchi mahsulotlardan, mijozlardan va yetkazib beruvchilardan. Raqobat tahlilining maqsadi korxona duch kelishi mumkin bo'lgan qulay imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlashdir.

Ayni paytda bozor raqobatga asoslangandir. Tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar bir-birlari bilan raqobatlasha oladilar. Shu munosabat bilan iste'molchi oxir-oqibat yuqori sifatli mahsulotni, xuddi shu mahsulotlar uchun arzonroq narxni oladi.

Raqobat muhiti ko'plab ta'riflarga ega bo'lgan tushunchadir. Raqobat muhiti vaqtinchalik kategoriya bo'lib, unga tanlov ishtirokchilari ta'sir ko'rsatishi muhim hisoblanadi. Raqobat muhiti raqobat mexanizmini ta'minlaydi. Korxona uchun raqobatchilarning noma'lum imkoniyatlarini baholash, harakatlarni taxmin qilish va tahlil qilish, shu bilan mumkin bo'lgan tahdid darajasini aniqlash muhimdir. Raqobat muhitiga oid birqancha olimlar tomonidan ilmiy yondashuvlar olib borilgan bo'lib ularga quyidagi olimlarni tariflarini kiritish mumkin.

Jumladan, Kurnosova Ye.A "raqobat muhiti-bu bozor subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirishning institutsional shartlari. Ushbu ta'rifdan kelib chiqadiki, „raqobat muhiti“ tushunchasi rivojlangan infratuzilma, moliya, pul-kredit siyosati va tegishli institutlarning ozmi-ko'pmi birlashtirilgan vositalariga ega bo'lgan davlat yoki mintaqaviy tashkilot bilan bog'liq"³.

Lenginovich S.G "raqobat muhiti - bu boshqaruvning qonuniy belgilangan me'yordi va qoidalariga asoslangan, belgilangan natijalarini amalga oshirish natijalarini tezkor monitoring qilish ta'siri ostida o'zgarib turadigan raqobatbardosh tartib maqsadlar"⁴. Davlatning iqtisodiyotga aralashishini, uni tartibga solish lozimligini asoslagan keynschilik nazariyasi va uning asoschisi Djon Meynord Keyns o'z navbatida soliqlarni asosiy tartibga soluvchi vosita deb qaraydi va soliqlarning fiskal ahamiyatiga e'tibor qaratilishi bilan ularning tartibga soluvchi ahamiyati ham o'rganila boshlandi. Nobel mukofoti sohibi Pol Samuelson ham "soliqlarga iqtisodiyotni tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida qaraydi"⁵.

Neokeynschilik yo'nalishi vakillari bo'lgan L.Xarrot, N.Kaldor, A. Xansen va P.Samuelsonlarning fikriga ko'ra, soliqlar iqtisodiyotni tartibga solish funksiyasiga ega. Ular soliq stavkalarini o'zgartirish va turli imtiyozlar berish yo'li bilan bu funksiyani bajarish mumkin deb hisoblaydilar⁶. Ingliz iqtisodchisi S.Parkinson so'zi bilan aytganda: "Soliqlar ko'hnadir – xuddi dunyodek, uning yuzaga kelishida qachondir bir mahalliy qo'mondon o'z hududida joylashgan daryo yoki tog'dan savdogar hamda sayohatchi o'tsa ulardan haq olishi sabab bo'lgan".

"Soliq ma'murchiligi — bu vakolatli organlar va boshqaruvning soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini amalga oshirishga, soliq tizimi va soliq nazoratining samarali ishlashini ta'minlashga qaratilgan faoliyatidir"⁸. "Soliq ma'murchiligi vakolatli organlarning soliq nazorati funksiyalarini amalga oshirish va soliqqa oid huquqbazarlik uchun aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish bilan bog'liq faoliyati hisoblanadi"⁹.

O'zbek olimi Sh.Toshmatov o'z tadqiqotlarida "Korxonalar iqtisodiy faolligini oshirishda soliqlar rolini kuchaytirish muammolari"ni o'rgangan. Olim o'z izlanishlarini, korxonalar to'laydigan soliqlarning mohiyati va zarurligi, soliqlar vositasida korxonalar iqtisodiy faolligini rag'batlantirish yo'llari borasidagi muammolarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Aynan ushbu olimning tadqiqotda mamlakatimizda ilk bor korxonalar iqtisodiy faolligini oshirishda soliqlar rolini kuchaytirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha masalalar tadqiq etilgan"¹⁰.

Boshqa bir olim N.Ashurova o'z izlanishlarida "Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish"ni o'rgangan. Olimning doktorlik dissertatsiyasi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida raqobatbardosh yuqori sifatli mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni ko'paytirish va turlarini kengaytirishni rag'batlantirish, ichki iste'mol bozorini to'yintirish, tayyor nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqaruvchi yangi mahalliy korxonalarni tashkil etish hamda mavjudlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, buning asosida bandlikni ta'minlash, aholi daromadlari va farovonlik darajasini oshirish maqsadida soliq imtiyozlarining amal qilish muddatlarini uzaytirish yuzasidan berilgan takliflar soliqqa tortish amaliyotiga tatbiq etilgan"¹¹.

O'zbek olimi X.Zaripovning "Soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini baholash yo'llari" mavzusidagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi

3 Курносова Е.А. Обеспечение конкурентоспособности предприятий сферы услуг: формирование инновационного поведения // Российский экономический интернет журнал. 2009. № 1. С. 598–607.

4 Ленгинович С.Г. Конкурентная среда: методы исследования // Экономическая наука и практика: материалы III междунар. науч. конф. (г. Чита, апрель 2014 г.). Чита: Издательство Молодой ученый, 2014. С. 88-91.

5 Jo'rayev A., Meyliyev O., Safarov G'. Soliq nazariyasi. O'quv qo'llanma – T: Toshkent Moliya instituti, 2004.–166 b.

6 Jo'rayev A., Meyliyev O., Safarov G'. Soliq nazariyasi. O'quv qo'llanma. – T.: Toshkent Moliya instituti, 2004. – 166 b.

7 Паркинсон С. Закон и доходы. – М.: ПКК. Интерконтакт, 1992 – с 100.

8 Игнатова Т.В., Пономарев А.И. Налоговое администрирование в Российской Федерации. М.: Финансы и статистика, 2006;

9 Орлов М.Ю. Совершенствование налогового администрирования: миф или реальность? // Ваш налоговый адвокат, 2006. №6;

10 Sh. Toshmatov . Korxonalar iqtisodiy faolligini oshirishda soliqlar rolini kuchaytirish muammolari.-Doktorlik ishi. Avtoreferat. T.: 2008.

11 N.Ashurova. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish.- Doktorlik ishi. Avtoreferat. T.: 2017.



mamlakatimizda soliq tizimi modernizatsiyasining hozirgi bosqichida soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini baholash yo'llari tadqiqiga bag'ishlangandir.

A.Axmedovning tadqiqot ishida "mahsulot va xizmatlarning bozor narxini belgilashning inson omilisiz avtomatlashtirilgan tizimini amaliyatga joriy etish orqali tadbirkorlik faoliyati uchun teng sharoitlar yaratish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, insofli soliq to'lovchi va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish"¹² taklifi, D.Babajanovning tadqiqot ishida "foydani soliqqa tortish mexanizmining amaldagi holati tahlili, foyda solig'ini bozor qiymatidan kelib chiqib hisob-kitob qilish va tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili hamda yuridik shaxslar foydasini soliqqa tortish ma'murchiligining iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga ta'sirini tahlili bo'yicha tadqiqot olib borilgan"¹³ taklifi, L.Raxmanovning tadqiqot ishida "Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash ko'pincha soliq siyosatini isloq qilish, byurokratiyani qisqartirish va qonuniy iqtisodiy faoliyat uchun sharoitlarni yaxshilashni o'z ichiga oladi. Yashirin iqtisodiyot davlat uchun soliq tushumlarining yo'qolishi, ishchilarning tengsizligi va ekspluatatsiyasi, qonunga bo'yusunmaslik va korrupsiya kabi bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi.

Shuningdek, u qonuniy korxonalar uchun raqobatni keltirib chiqarishi va iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi. Shu jihatdan olganda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash qonunbuzarlarga nisbatan qoidalar va jazo choralarini kuchaytirish, soliq tizimini takomillashtirish, rasmiy bandlikni rag'batlantirish va tadbirkorlar uchun byurokratik to'siqlarni kamaytirishni o'z ichiga oladi"¹⁴ deb taklifi asoslangan.

Mazkur olimlarning ishlarida yangi soliq konsepsiysi doirasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining istiqboldagi vazifalarini hisobga olgan holda soliqlarning korxonalar moliyaviy — xo'jalik faoliyatiga ta'sirini tizimli tarzda tadqiq etish va uning diqqat markazida, "raqamli iqtisodiyotga asoslangan elektron hisob-kitob tizimini yo'nga qo'yish", "erkin raqobatga asoslangan tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochish", ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish moliyaviy ta'minotining muhim asosi bo'lmish "davlat fiskal maqsadlari va soliq dastaklari samarali amal qilish mexanizmi" mutanosibligini o'zaro muvofiqlashtirish hamda uyg'unlashtirish orqali uning takomillashgan mexanizmini yaratish bilan bog'liq muammolar kompleks ravishda tadqiq etishga qaratilgandir.

Bugungi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyatiga soliqlarning ta'siri yuzasidan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy izlanishlarda jahon bozori konyunkturasidagi keskin o'zgarishlar, xalqaro soliq amaliyoti va uning biznes muhiti, raqobatning milliy doiradan jahon darajasiga chiqqanligi asosida soliqlarning xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy - xo'jalik faoliyatiga ijobjiy ta'sirini ta'minlashga oid o'rta va uzoq muddatli strategiyaga ta'sir etuvchi omillarni oldindan baholash kabilarga alohida e'tibor qaratilgan.

"Hozirgi vaqtida global miqyosda soliq siyosatining eng ko'zga ko'rning masalalaridan biri — raqamli iqtisodiyotni soliqqa tortish rejimini tanlash va xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqamli faoliyatdan olingan daromadlarini taqsimlash jarayonining avtomatlashtirilgan tizimini yaratish hisoblanadi" ¹⁵. O'zbekistonda jahon andozalariga mos samarali soliq tizimiga tayanuvchi mustahkam iqtisodiy asos hamda real natijaga asoslangan istiqbolli taraqqiyot yo'nalishlarini belgilash, soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddallashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarни kengaytirishga jiddiy ahamiyat berilmoqda.

Soliq yukini pasaytirib borish, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi uning nomutanosib taqsimlanishini bartaraf etish, soliq ma'murchiligidagi nomukammalliklar tufayli soliqlarni hisoblash va to'lashdagi muammolarni bartaraf etish, soliq to'lovchilar bilan soliq organlari o'rtasidagi bo'yusunuvchi munosabatlarga yo'l qo'ymaslik va ularning "hamkorlikda o'sishi"ni ta'minlashga erishish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga to'sqinlik qiladigan asossiz soliq tekshiruvlarini bartaraf etish va soliq maslahati ko'rsatish hamda samarali nazorat tadbirlariga o'tish vazifasi belgilandi.

Respublikamizda "yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirildi. Natijada rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko'paydi. Qo'shilgan qiyomat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Buning hisobidan o'tgan yili soliq to'lovchilar ixtiyoroda 2 trillion so'm qoldi. 2024-yilda bu raqam 11 trillion so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bir yilda tadbirkorlar ixtiyoroda shuncha mablag' qolishi, albatta, ularga o'z bizneslarini rivojlantirish uchun juda katta qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi". Bu esa o'z navbatida mavzuning bugungi kundagi islohotlarning dolzarb masalalaridan biri ekanligi ko'rsatmoqda.

Iqtisodchilarni soddallashtirilgan soliq tizimiga doir qarashlarining tahlili ko'rsatmoqdaki, ular soddallashtirilgan soliqlarni turli jihatdan o'rgangan, tahlil qilgan va baho bergan. Mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan taklif-tavsiyalar bildirgan. Lekin mamlakatimiz soliq amaliyotida qo'llanilayotgan aylanmadan olinadigan soliqni xususiyatlari va davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini oshirishga

¹² F.Axmedov. Soliq to'lashdan qochish xavflarini aniqlashda zamonaviy fiskal nazorati mexanizmlarini takomillashtirish.- Doktorlik ishi. Avtoreferat. T.: 2022.

¹³ D.Babajanov. Foyda solig'i soliq ma'muriyatçiligidagi takomillashtirish.- Doktorlik ishi. Avtoreferat. T.: 2023.

¹⁴ L.Raxmanov. Xufiyona iqtisodiyotni ulushini kamaytirishda soliq instrumentlardan samarali foydalanan masalalari.- Doktorlik ishi. Avtoreferat. T.: 2023.

¹⁵ Paying Taxes 2019. A unique report by PwC and the World Bank Group. <http://www.pwc.com/gx/en/payingtaxes/pdf/pwc-paying-taxes-2019.pdf>



doir tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan. Aylanmadan olinadigan soliqni davlat budgeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini yoritishda uning shakllanishi va rivojlanishini, bu boradagi mamlakatimiz va jahon tajribasini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Soliqqa tortishning rivojlanish bosqichlarida soliqlarni soddalashtirish masalasi doimiy e'tibor markazida bo'lgan. "Davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda ko'plab soliqlar o'rniغا shunday bir yagona soliq joriy etish hisobiga davlat budgetini zarur mablag'lar bilan ta'minlash lozimligi borasidagi g'oya asosida yagona soliq nazariyasi vujudga keldi, rivojlandi va bugungi kunga kelib, ko'plab mamlakatlar soliq amaliyotida qo'llanilib kelinmoqda"¹⁶. Ko'plab davlatlar, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar soliq amaliyotida yagona soliq nazariyasi g'oyalarini o'zida ifoda etuvchi soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartiblari amal qilmoqda. Soliqqa tortishning soddalashtirilishi muayyan soha, tarmoq, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlanantirish uchun ularning soliq majburiyatlarini soddalashtirish, yengillashtirish orqali qulaylik yaratishdir.

"Yagona soliq haqidagi nazariyada uning manbaini yangidan yaratilgan qiymatni qiymat ekvivalentida taqsimlovchi daromaddan olinadigan soliqlarga tayanadi. Demak, yagona soliq tizimi avvalo soliq mexanizmini soddalashtirish maqsadidagi daromaddan olinadigan soliqni joriy qilishga asoslanadi"¹⁷. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi ushbu tartibda soliq to'lovchilar manfaatlariga xizmat qiladi. Chunki soddalashtirilgan soliq tizimida soliq yuki nisbatan kam bo'ladi, soliq hisob-kitoblari osonlashadi, soliq bazasini hisoblashga kam vaqt sarf qilinadi va boshqalar. Shuning uchun yagona soliq nazariyasining g'oyalaridan turli maqsadlarda foydalilanildi.

"Yagona soliqni joriy etish g'oyasi o'rta asrlardan e'tiboran ommabop hisoblangan, hattoki (masalan, XVIII asrda Angliyada) ayrim partiyalar yagona soliqni partiyaning asosiy shiori qilib olgan. Yagona soliq nazariyasi tarafdarlari yagona soliq o'rnatilganidan so'ng, Kambag'allik barham topishi, ish haqi oshishi, har qanday sanoat tarmog'ida ishlab chiqarish o'sishi yuz berishini ta'kidlab, soliqqa tortishning obyekti sifatida foydalanish uchun yer, xarajatlar, ko'chmas mulk, daromadlar, kapital kabi predmetlarni taklif qilganlar"¹⁸.

O'zbekiston amaliyotida soddalashtirilgan soliq tizimi qariyb 20 yildan ortiq vaqt mobaynida keng qo'llanilib kelinmoqda. Sog'lom raqobat muhitini rivojlanantirishda soliq ma'murchiligi sohasida taqdim etilayotgan soliq imtiyozlarining samaradorligini rus olimi R.N.Kalakov ham "soliq imtiyozlari samaradorligini baholashning yagona metodikasi" mavjud emasligi kabi salbiy holatlarni hamda imtiyozlarning samaradorligini baholash umum davlat ahamiyatidagi jiddiy masala ekanligini qayd etgan"¹⁹.

Uning fikricha, soliq imtiyozlarining samaradorlik ko'rsatkichlari ichida eng muhimi — bu budget samaradorligidir. Samaradorlikning bu turi sanoat ishlab chiqarishning o'sishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bilan baholanadigan investitsion samaradorlikni ham o'z ichiga oladi. T.A.Kolsova va Ya.I.Sidorkevichlar quyidagilarni e'tirof etgan, "soliq imtiyozlari samaradorligini baholash — muhim va zaruriy jihat; soliq imtiyozlarini taqdim etish maqsadini, shuningdek, budget uchun oqibatlarini majburiy tartibda baholash lozim. Ular soliq imtiyozlari samaradorligining tahlili umum davlat tuzilmasida amalga oshirilmasligini salbiy jihat sifatida qayd etishgan"²⁰.

Masalan, Ye.M.Anufriyevan fikricha, "soliq imtiyozlarining samaradorligi – bu g'oyat murakkab hodisa bo'lib, samaradorlikni baholash natijalari amaldagi imtiyozlar tarkibini optimallashtirish va imtiyoz oluvchilarni optimal tanlash imkonini beradi. Shunga qaramasdan, soliq imtiyozlari samaradorligini baholash mexanizmi amalda ishlatalmayapti"²¹.

O.L.Rubsova esa kichik biznesni soliqlar orqali rag'batlantirish dasturining samaradorligini baholashni amaliy jihatdan imkonsiz deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, soliqlar orqali rag'batlantirishning samaradorligini tahlil qilish bugungi kunda faqatgina uni taqdim etuvchi organlar tomonidan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish uchungina amalga oshirilmoqda, aslida esa bunday tahlillarni mustaqil moliya organlari tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Uning ishonchi komilki, "kichik biznesni rag'batlantirish uchun pul mablag'larining ko'payishi kichik biznes subyektlari sonining sezilarli o'sishiga ham, ular faoliyatining faollashishiga ham olib kelmaydi"²².

16 Safarov G'. va boshq. Yagona soliq nazariyasi: mohiyati va afzallikkari. //O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 3/2003-yil. 32-33 betlar.

17 To'xsanov Q.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliqqa tortishni takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TDIU, 2019.- 61 b.

18 Safarov G'. va boshq. Yagona soliq nazariyasi: mohiyati va afzallikkari. //O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 3/2003-yil. 32-33 betlar.

19 Калаков Р.Н. К вопросу об эффективности налоговых льгот: анализ современной практики //Научные труды SWORDL. – 2012. – № 1. – С.34-43.

20 Проблемы учета, анализа, аудита и налогообложения: сборник статей Третьей Всероссийской заочной электронной научной конференции, Тюмень, 2016.

21 Ануфриева Е.М. Критерии эффективности налоговых льгот //Модели, системы, сети в экономике, технике, природе и обществе. – 2014. № 4 (12).

22 Рубцова О.Л. Проблемы государственной поддержки российского малого бизнеса //Российское предпринимательство. – 2015. – Т.16. № 17. – С.2697-2706.



"Soliq imtiyozlarning samaradorligi" tushunchasiga ta'rif bergan O.T.Yuldashevning fikricha, soliq imtiyozlarning samaradorligi deganda, imtiyoz hisobiga qoldirilgan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish natijasida budjetga olingan qo'shimcha daromadlarning soliq imtiyozlari (hajmi)ga nisbatli tushuniladi. Soliq imtiyozlarning samaradorligini ilmiy asoslangan holda baholash yuqori iqtisodiy natijalarga erishishning muhim asosi hisoblanadi"²³.

Jumladan, I.Niyazmetov o'z tadqiqotlarida "...mamlakat soliq tizimining umumbelgilangan va soddallashtirilgan soliq rejimlariga asoslanganligi tadbirkorlik subyektlari o'tasida soliq yukining keskin farqlanishiga olib kelgan"²⁴ ligini ta'kidlaydi.

Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitiga oid ilmiy nazariy qarashlar shuni ko'rsatadiki, ular o'zaro mustahkam bog'liq bo'lib, bozor mexanizmlarining samarali ishlashiga ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy yondashuvlarda soliq siyosatining raqobat muhitiga ta'siri turlicha talqin qilinadi: ba'zi tadqiqotchilar samarali va shaffof soliq ma'murchiligi tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirib, bozorda sog'lom raqobat muhitini shakllantirishini ta'kidlaydilar, boshqalar esa noadolatli soliq yuki yoki byurokratik to'siqlar raqobatni cheklab, iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qilishi mumkinligini ko'rsatadilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitiga oid ilmiy-nazariy qarashlar shuni ko'rsatadiki, bu ikki jarayon bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Adolatli va samarali soliq ma'muriyati sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi, tadbirkorlik subyektlari uchun teng sharoit yaratadi va iqtisodiyotda barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, soliq ma'murchiligidagi murakkabliklar, ortiqcha byurokratik to'siqlar yoki adolatsiz amaliyotlar bozorda raqobat tengligini buzishi, "soya iqtisodiyoti"ning kengayishiga sabab bo'lishi mumkin. Demak, soliq tizimi samaradorligi bevosita raqobat muhiti sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Takliflar: Soliq ma'murchiligini soddallashtirish va raqamlashtirish orqali tadbirkorlik subyektlari uchun quayliyklar yaratish. Soliq siyosatini barqaror yuritish va qonunlarning izchil qo'llanishi orqali bozor ishtirokchilarida ishonchni mustahkamlash. Soliqdan bo'yin tov lash va "soya iqtisodiyoti"ga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish. Soliq ma'muriyati organlari faoliyatini shaffoflashtirish va ochiq ma'lumotlar bazasidan keng foydalanishni yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Курносова Е.А. Обеспечение конкурентоспособности предприятий сферы услуг: формирование инновационного поведения // Российский экономический интернет журнал. 2009. № 1. С. 598–607.
2. Ленинович С.Г. Конкурентная среда: методы исследования // Экономическая наука и практика: материалы III междунар. науч. конф. (г. Чита, апрель 2014 г.). Чита: Издательство Молодой ученый, 2014. С. 88-91.
3. M.Porter "Mamlakatning raqobat jihatdan ustunliklari "milliy rombi"ning yana 3 ta elementi keltirilgan konsepsiysi".
4. Орлов М.Ю. Совершенствование налогового администрирования: миф или реальность? // Ваш налоговый адвокат, 2006. №6;
5. N.Ashurova. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish.- Doktorlik ishi. Avtoreferat. T.: 2017.
6. Калаков Р.Н. К вопросу об эффективности налоговых льгот: анализ современной практики //Научные труды SWORDL. – 2012. – № 1. – С.34-43.
7. Smith A. The Wealth of Nations. – London: Methuen, 1776.
8. Musgrave R.A., Musgrave P.B. Public Finance in Theory and Practice. – New York: McGraw-Hill, 1989.
9. Stiglitz J. Economics of the Public Sector. – New York: W.W. Norton, 2000.

23 Yuldashev O.T. Soliq imtiyozlari samaradorligini baholash metodologiyasi // Iqtisodiyot va ta'lif jurnali. -2014. №1.

24 Niyazmetov I.M. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta'minlash. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: BMA, 2018. — 70 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100